

**QASHQADARYO VILOYAT SUDI JINOYAT ISHLARI BO'YICHA
SUDLOV HAY'ATI APELLATSIYA INSTANSIYASINING
A J R I M I**

2021 yil dekabr oyining 24 kuni, Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati o'z binosida, ochiq sud majlisida;

viloyat sudi raisining o'rinbosari O.Mamadaliyevning raisligida, hay'at sudyalari: [REDACTED] iborat tarkibda, sudya katta yordamchisi S.Yodgorovning kotibligida, taraflardan: Qashqadaryo viloyat prokuraturasining bo'lim prokurori [REDACTED], sudlanuvchi Sdlanuvchi [REDACTED]

[REDACTED], sudlanuvchi J.Ravshonov, M.Eshquvatov va uning himoyachisi-advokat M.Tursunovning sud hukmi ustidan bergan apellatsiya shikoyatini 1-1809-2105/22-sonli jinoyat ishi hujjatlari bilan birga ko'rib chiqib, quyidagilarni

a n i q l a d i:

Jinoyat ishlari bo'yicha [REDACTED] apreldagi hukmiga asosan:

[REDACTED] 1985 yil 4 iyulda Qashqadaryo viloyat Koson tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, oilali, 3 nafar farzandi bor, ma'lumoti o'rta-maxsus, muqaddam sudlanmagan, Koson tuman IIB YHXB inspektori vazifasida ishlagan, Koson tumani, "Nekuz" qishlog'idagi raqamsiz uyda yashagan, ish bo'yicha 2020 yil 10 oktabrdan qamoqda saqlanib, sud zalidan ozod qilingan;

O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 3-qismining "v" bandi, 28,211-moddasining 1-qismi bilan JKning 45, 59, 61-moddalariga asosan 1 yil mansabdorlik va moddiy javobgarlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilish va 2 yil 6 oy axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan;

[REDACTED] 1984 yil 6 fevralda Qashqadaryo viloyat Chiroqchi tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, oilali, 2 nafar farzandi bor, ma'lumoti oliy, muqaddam sudlanmagan, deputatlikka saylanmagan, davlat mukofotlari olmagan, Dehqonobod tuman IIB YHXB katta inspektori lavozimida ishlagan, Chiroqchi tumani To'qmor qishlog'ida yashaydi, ushbu ish bo'yicha munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat ehtiyot chorasi qo'llanilgan.



O'zbekiston Respublikasi JKning 210-moddasi 1-qismi va 209-moddasining 1-qismi bilan JKning 45,59,61-moddalariga asosan 1 yil mansabdorlik va moddiy javobgarlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilish va 2 yil 6 oy ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan;

1993 yil 5 yanvarda Qashqadaryo viloyat Koson tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, oilali, 3 nafar farzandi bor, ma'lumoti o'rta-maxsus, muqaddam sudlanmagan, deputatlikka saylanmagan, davlat mukofotlari olmagan, Qashqadaryo viloyat IIB YHXB yo'l patrul xizmati batalyoni yo'l patrul xizmati maxsus otryadi 3-safarbarlik guruhi YPX inspektori lavozimida ishlagan, Koson tumani, "Sayyod" MFY, Sayyod qishlog'i raqamsiz uyda yashaydi ushbu ish bo'yicha munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat ehtiyot chorasi qo'llanilgan.

O'zbekiston Respublikasi JKning 28,210-moddasining 1-qismi, 28,209-moddasining 1-qismi va 205-moddasining 1-qismi bilan JKning 45,59,61-moddalariga asosan 1 yil mansabdorlik va moddiy javobgarlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilish va 2 yil 6 oy ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 49713, 49719, 49726, 49730 va 49731-moddalariga asosan apellyatsiya instansiyasi sudi

A J R I M Q I L D I:

Jinoyat ishlari bo'yicha Koson tuman sudining [redacted] apreldagi

[redacted]
[redacted]
nisbatan chiqarilgan hukmi o'zgarishsiz, apellatsiya shikoyati qanoatlantirilmasdan qoldirilsin.

Raislik qiluvchi, sudya

(imzo)

Hay'at sudyalari

(imzo)

(imzo)

Asliga to'g'ri:

